

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK MENEJMENTNI TAKOMILLASHTIRISH: ILG'OR XORIJIY VA MILLIY TAJRIBANING QIYOSIY TAHLILI

Mannabov Abduhamid

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Quruqlikdagi qo'shinlar instituti, katta o'qituvchi.

Annotatsiya.

Maqolada harbiy ta'lim muassasalarida pedagogik menejmentni takomillashtirish imkoniyatlari xorijiy va milliy tajriba qiyosida o'rganilgan. Sandhurst, West Point va Saint-Cyr amaliyoti ta'lim maqsadlari, kompetensiyalar, ssenariyli tayyorgarlik va natijalar monitoringi mezonlari bo'yicha tahlil qilinib, milliy tizim uchun integrativ-adaptiv boshqaruv mexanizmi asoslangan.

Kalit so'zlar: pedagogik menejment, harbiy ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim sifati, adaptiv boshqaruv, monitoring, raqamli transformatsiya, institutsional integratsiya.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА В ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО И НАЦИОНАЛЬНОГО ОПЫТА

Маннабов Абдухамид

Институт сухопутных войск Университета военной безопасности и обороны Республики Узбекистан, старший преподаватель.

Аннотация.

В статье возможности совершенствования педагогического менеджмента в военных образовательных учреждениях рассматриваются на основе сравнительного анализа зарубежного и национального опыта. Практика Sandhurst, West Point и Saint-Cyr проанализирована по критериям целей обучения, компетенций, сценарной подготовки и мониторинга результатов. На основе проведенного анализа обоснован интегративно-адаптивный механизм управления для национальной системы военного образования.

Ключевые слова: педагогический менеджмент, военное образование, компетентностный подход, качество образования, адаптивное управление, мониторинг, цифровая трансформация, институциональная интеграция.

IMPROVING PEDAGOGICAL MANAGEMENT IN MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS: A COMPARATIVE ANALYSIS OF ADVANCED INTERNATIONAL AND NATIONAL PRACTICES

Mannabov Abduhamid

Land Forces Institute, University of Military Security and Defense of the Republic of Uzbekistan, Senior Lecturer.

Abstract.

The article examines opportunities for improving pedagogical management in military educational institutions through a comparative analysis of international and national practices. The practices of Sandhurst, West Point, and Saint-Cyr are analyzed according to such criteria as educational objectives, competencies, scenario-based training, and outcome monitoring. Based on the comparative analysis, an integrative-adaptive management mechanism for the national military education system is substantiated.

Keywords: pedagogical management, military education, competency-based approach, quality of education, adaptive management, monitoring, digital transformation, institutional integration.

Kirish. XXI asrda xavfsizlik muhiti va harbiy texnologiyalarning tez o'zgarishi ofitserlar tayyorlashga qo'yiladigan talablarni ham yangilamoqda. Bunday sharoitda o'quv dasturini vaqt-vaqti bilan yangilab turishning o'zi yetarli emas. Ta'lim muassasasi maqsadlarni belgilash, professor-o'qituvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, kursantlarning natijalarini kuzatish va olingan ma'lumotlar asosida o'quv jarayoniga o'zgartirishlar kiritish imkoniga ega bo'lishi kerak. Shu jihatdan pedagogik menejment harbiy mutaxassis tayyorlash sifatini ta'minlovchi tashkiliy omillardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik menejmentni faqat ma'muriy nazorat bilan tenglashtirish uning mazmunini toraytiradi. U ta'lim maqsadlari, o'quv mazmuni, pedagogik texnologiyalar, kadrlar salohiyati va baholash mexanizmlarini o'zaro bog'langan holda boshqarishni nazarda tutadi. T. Bush ta'limda liderlik va menejment sifati o'quv natijalariga sezilarli ta'sir qilishini

ta'kidlaydi [1; 391–406-b.]. Harbiy ta'limda esa mazkur munosabatga xizmat intizomi, iyerarxik mas'uliyat, jangovar tayyorgarlik talablari va xavfsizlikka oid cheklovlar ham qo'shiladi. Shuning uchun bu sohada boshqaruv samaradorligini pedagogik natijalar bilan birgalikda baholash maqsadga muvofiq.

NATO Defence Education Enhancement Programme (DEEP) tajribasida harbiy ta'limni modernizatsiya qilish ikki asosiy yo'nalish, ya'ni o'quv dasturlarini rivojlantirish va professor-o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish orqali amalga oshiriladi. Dastur institutsional moslashuv va sifatni ta'minlash jarayonlariga ham e'tibor qaratadi [2]. Bu yondashuv harbiy ta'lim muassasasida boshqaruv qarorlari o'quv mazmuni, o'qitish usuli va natijalarni baholash bilan bir tizimda ko'rilishi lozimligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi Sandhurst, West Point va Saint-Cyr tajribasini, shuningdek, O'zbekistondagi harbiy va xavfsizlik yo'nalishidagi oliy ta'lim amaliyotini pedagogik menejment nuqtayi nazaridan qiyosiy o'rganishdan iborat. Tahlil davomida boshqaruvning qaysi elementlari ta'lim natijasiga bevosita bog'langani, qaysi mexanizmlar milliy sharoitga moslashtirilishi mumkinligi va ularni joriy etishda qanday tashkiliy shartlar talab qilinishi aniqlashtirildi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Ta'lim menejmentiga oid tadqiqotlarda samarali boshqaruv tashkilot maqsadlarining aniqligi, rahbarlik uslubi, xodimlar o'rtasidagi hamkorlik, tashkiliy madaniyat va natijalarni baholash tizimi bilan bog'lanadi [1]. Bu omillar bir-biridan ajralgan holda emas, yagona boshqaruv siklida ishlaganda pedagogik ta'sir kuchayadi. Amaliyotda bunday sikl maqsadni belgilash, jarayonni tashkil etish, natijani kuzatish, tahlil qilish va zarur o'zgartirishlarni kiritish orqali namoyon bo'ladi.

Harbiy ta'limga oid xalqaro manbalarda boshqaruv sikli kompetensiyaviy natijalar, liderlikni rivojlantirish va amaliy vazifalarga yaqinlashtirilgan tayyorgarlik bilan to'ldiriladi. NATO DEEP harbiy ta'lim muassasalariga o'quv dasturlari va professor-o'qituvchilarni rivojlantirish bo'yicha metodik yordam berish bilan birga, sifatni ta'minlash jarayonlarini shakllantirishni ham qo'llab-quvvatlaydi [2]. Shu sababli harbiy ta'lim muassasasini faqat fanlar va mashg'ulotlar yig'indisi emas, o'zaro bog'langan pedagogik va boshqaruv jarayonlari majmuasi sifatida ko'rish zarur.

Royal Military Academy Sandhurstda ofitserlar tayyorgarligi uch bosqichda tashkil etilgan. Birinchi bosqichda bazaviy harbiy ko'nikmalar, jismoniy tayyorgarlik va qaror qabul qilishga e'tibor beriladi; ikkinchi bosqichda liderlik ko'nikmalari rivojlantirilib, akademik tayyorgarlikning ulushi ortadi; uchinchi bosqichda egallangan ko'nikmalar murakkab amaliy mashqlarda sinovdan o'tkaziladi [3]. Pedagogik menejment nuqtayi nazaridan bu tuzilma o'quv vazifalarini kursantning tayyorgarlik darajasi va mas'uliyati o'sishiga mos ravishda taqsimlash imkonini beradi.

West Point akademik dasturida o'quv natijalari oldindan belgilangan va baholanadigan ko'rsatkichlar bilan bog'langan. "What Graduates Can Do" mezonlari bitiruvchida shakllanishi kerak bo'lgan aniq qobiliyatlarni ifodalaydi va akademik dastur maqsadlarining bajarilishini baholash uchun xizmat qiladi [4]. Mazkur amaliyotning pedagogik menejment uchun ahamiyati shundaki, o'quv maqsadlari va ularni baholash mexanizmlari bir-biridan ajratilmaydi.

Saint-Cyr Coëtquida École spéciale militaire dasturi akademik va harbiy tayyorgarlikni uch yillik yagona ta'lim trayektoriyasida birlashtiradi. Rasmiy ma'lumotlarda bitiruvchilar keyinchalik qo'shinlar va shtablarda tobora yuqori mas'uliyatli vazifalarni bajarishga tayyorlanishi qayd etilgan [5]. Bunday yondashuv ta'lim mazmunini faqat birinchi lavozim talablari bilan cheklamasdan, ofitserning keyingi kasbiy rivojlanish bosqichlari bilan ham bog'lash zarurligini anglatadi.

O'zbekistondagi tajribada ham ta'limning institutsional integratsiyasi kuchayib bormoqda. Jamoat xavfsizligi universitetida bakalavriat va magistraturani qamrab olgan ikki bosqichli tizim amal qiladi va u bir nechta kuch tuzilmalari uchun maqsadli kadrlar tayyorlaydi [6]. 2026-yilda Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti bilan Jamoat xavfsizligi universiteti o'rtasida imzolangan memorandum qo'shma mashg'ulotlar, malaka oshirish, ilmiy tadbirlar, resurslardan o'zaro foydalanish va masofaviy ta'limni rivojlantirishni nazarda tutadi [7]. Bu ma'lumotlar milliy harbiy ta'limda hamkorlik resurslarini boshqarish alohida yo'nalishga aylanayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqotda kontent-tahlil, qiyosiy-institutsional tahlil, tizimli yondashuv va struktur-funksional modellash tirish usullaridan foydalanildi. Qiyoslash uchun yettita mezon tanlandi: ta'lim maqsadlarining aniqligi; kompetensiyalarni shakllantirish mantig'i; kursant mas'uliyatining bosqichma-bosqich oshishi; amaliy va ssenariyli tayyorgarlik; natijalar monitoringi; raqamli qo'llab-quvvatlash; institutsional hamkorlik. Empirik baza Sandhurst, West Point, Saint-Cyr hamda O'zbekistonning harbiy va xavfsizlik yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalariga oid rasmiy materiallardan shakllantirildi [2–10].

Muhokama.

Qiyosiy materiallar harbiy ta'limda boshqaruv intizomi muhim bo'lib qolishini, biroq uning samarasi ta'lim natijalari bilan qanchalik bog'langaniga ham bog'liq ekanini ko'rsatadi. Iyerarxik mas'uliyat o'quv jarayonida aniq vazifa va nazoratni ta'minlaydi. Shu bilan birga, professor-o'qituvchining kasbiy-pedagogik tashabbuskorligi, kursantning faol ishtiroki va tezkor qayta aloqa mexanizmlari bo'lmasa, boshqaruvning rivojlantiruvchi imkoniyati cheklanadi.

Sandhurst tajribasida kursantga qo'yiladigan talablar birdaniga emas, tayyorgarlik bosqichlari bo'yicha murakkablashib boradi [3]. Avval bazaviy harakat va qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi, keyin liderlik mas'uliyati oshiriladi, yakunda esa bu ko'nikmalar murakkab mashqlarda tekshiriladi. Milliy harbiy ta'lim uchun mazkur tajribaning qiymati o'quv maqsadlarini "bilish", "amalda bajarish", "boshqarish" va "mustaqil qaror qabul qilish" darajalariga ajratib rejalashtirish imkoniyatidadir.

West Pointda natijaga yo'naltirilgan yondashuv akademik maqsadlarni aniq va baholanadigan ko'rsatkichlar bilan bog'lashda ko'rinadi [4]. Bu tartib har bir fan yoki modulning yakuniy kompetensiyaga qo'shadigan hissasini ko'rish imkonini beradi. Natijada o'quv rejasidagi takrorlanishlarni aniqlash, mazmunni o'zaro muvofiqlashtirish va monitoring ma'lumotlariga tayanib dasturni takomillashtirish uchun boshqaruv asosi paydo bo'ladi.

Saint-Cyr misolida esa tayyorgarlik birinchi ofitserlik lavozimi bilan tugamaydigan kasbiy rivojlanish jarayoni sifatida qurilgan [5]. Akademik va harbiy komponentlarning bir-biriga bog'langani kursantni keyingi bosqichlardagi rahbarlik va shtab vazifalariga tayyorlashga xizmat qiladi. Bu tajriba harbiy ta'limda natijalarni faqat bitiruv imtihoni bilan emas, keyingi xizmat faoliyatida talab qilinadigan qobiliyatlar bilan ham bog'lash zarurligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari milliy harbiy ta'lim amaliyotida boshqaruv intizomi, shtab ishini tizimli tashkil etish, operativ rejalashtirish va qaror qabul qilish tartiblarining muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Hozirgi bosqichda bu jihatlarni natijaga yo'naltirilgan monitoring va muassasalararo hamkorlik bilan boyitish uchun amaliy imkoniyatlar mavjud. Masalan, Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Chirchiq davlat pedagogika universiteti bilan memorandum qo'shma mashg'ulotlar, malaka oshirish va pedagogik-psixologik yondashuvlarni rivojlantirishni nazarda tutadi [8]. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti bilan hamkorlikda esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ilmiy-innovatsion faoliyat va tajriba almashinuviga e'tibor qaratilgan [9].

Milliy tizimni takomillashtirishda xorijiy tajribani to'liq ko'chirish maqbul emas. Qiyosiy tahlil har bir modeldan aniq vazifaga xizmat qiluvchi elementni tanlash zarurligini ko'rsatdi. Sandhurstdan tayyorgarlikni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, West Pointdan natijalarni aniq mezonlar bilan baholash, Saint-Cyrdan kasbiy rivojlanishning uzoq muddatli trayektoriyasini hisobga olish, NATO DEEPdan esa o'quv dasturi va professor-o'qituvchilarni rivojlantirishni o'zaro bog'lash tajribasini olish mumkin [2–5]. Bunday selektiv yondashuv milliy boshqaruv an'analari va mavjud resurslarni hisobga olish imkonini beradi.

1-jadval. Xorijiy va milliy tajribada pedagogik menejment mexanizmlarining qiyosiy tavsifi

Model	Ustuvor mexanizmi	boshqaruv	Pedagogik natija	Milliy tizim uchun adaptatsiya
Sandhurst	Bosqichli murakkablashtirish, mas'uliyat va ssenariyli mashqlar		Qaror qabul qilish va liderlik	Mashg'ulotlarni tayyorgarlik darajasiga mos bosqichlash
West Point	Aniq natijalar, kompetensiya ko'rsatkichlari va fanlararo integratsiya		O'lchanadigan kasbiy va intellektual natija	Kompetensiya matritsasi va natijalar monitoringi
Saint-Cyr	Kasbiy trayektoriya, akademik va harbiy tayyorgarlik integratsiyasi		Strategik fikrlash va keyingi lavozimlarga tayyorlik	Ta'lim natijalarini xizmat rivojlanishi bilan bog'lash
O'zbekiston milliy tizimi	Boshqaruv intizomi, shtab va operativ rejalashtirish, institutsional hamkorlik		Boshqaruv qarorlarining izchilligi va amaliy yo'nalganlik	Raqamli monitoring, kompetensiyaviy baholash va hamkorlikni kuchaytirish

Qiyosiy natijalardan ko'rinadiki, samarali pedagogik menejmentni bitta tayyor model bilan ifodalash qiyin. Ta'lim muassasasining vazifasi, tayyorlanayotgan kadr profili, xavfsizlik muhiti va boshqaruv madaniyati turlicha bo'lgani uchun ustuvor mexanizmlar ham farq qiladi. Shu sababli milliy amaliyot uchun bir nechta modelning samarali elementlarini yagona boshqaruv sikliga birlashtirish asosliroq yondashuv hisoblanadi.

Natijalar.

Qiyosiy tahlil asosida harbiy ta'lim muassasasi uchun integrativ-adaptiv pedagogik menejment mexanizmi shakllantirildi. Muallif taklif etayotgan mexanizm beshta o'zaro bog'liq qismni qamrab oladi: diagnostik-maqсадli, loyihaviy-tashkiliy, jarayon-texnologik, monitoring-tahliliy va rivojlantiruvchi-tuzatish qismlari.

Mexanizm siklli xususiyatga ega. Monitoring natijasi jarayon oxirida qolib ketmaydi; u keyingi rejalashtirish, resurs taqsimoti va pedagogik qarorlarni qayta ko'rib chiqish uchun kirish ma'lumoti vazifasini bajaradi.

Diagnostik-maqсадli qismda ta'lim muassasasining vazifalari, kasbiy talablar va bitiruvchi egallashi kerak bo'lgan kompetensiyalar o'zaro muvofiqlashtiriladi. Rejalashtirish "qaysi fan o'qitiladi?" degan savoldan emas, "bitiruvchi muayyan xizmat vaziyatida nimani mustaqil bajara olishi kerak?" degan natijaviy savoldan boshlanadi. Shundan keyin fan, modul va mashg'ulotlarning mazkur natijaga qo'shadigan hissasi belgilanadi.

Loyihaviy-tashkiliy qism o'quv rejasi, pedagogik kadrlar, vaqt, moddiy baza va hamkor muassasalar imkoniyatlarini umumiy natijaga yo'naltirishga xizmat qiladi. Bunda kafedra va bo'linmalar faoliyatini faqat yuklama bajarilishi bilan baholash yetarli emas. Bir kompetensiya turli fanlarda qanday rivojlantirilayotgani va qaysi bosqichda baholanayotgani ham ko'rinishi kerak.

Jarayon-texnologik qism an'anaviy mashg'ulotlarni muammoli vaziyatlar, shtab o'yinlari, simulyatsiya va ssenariyli topshiriqlar bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Sandhurstdagi bosqichli murakkablashuv va West Pointdagi integrativ o'quv natijalari bu yerda metodik orientir sifatida xizmat qilishi mumkin [3; 4]. Raqamli texnologiyalar esa mustaqil maqsad emas; ular vaziyatni modellashtirish, natijani qayd etish va tahlil uchun ma'lumot to'plash vositasi sifatida qo'llanishi lozim.

Monitoring-tahliliy qismda faqat davomat yoki yakuniy bahoni qayd etish bilan cheklanish maqsadga muvofiq emas. Kompetensiyaning o'sish dinamikasi, amaliy topshiriqda yo'l qo'yilgan xatolar, qaror qabul qilish sifati, qo'llangan metodikaning natijasi va pedagogning metodik rivojlanishi ham tahlil obyektiga aylanadi. 2026-yilda huquqni muhofaza qiluvchi organlar oliy ta'lim tashkilotlari konsorsiumi doirasida yagona kompetensiyalar modeli, LMS, elektron portfolio

hamda VR/AR yechimlarini joriy etish vazifalari belgilangani milliy tizimda bunday monitoringni raqamli asosda rivojlantirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi [10]. Rivojlantiruvchi-tuzatish qismi monitoring ma'lumotini boshqaruv qaroriga aylantiradi. Natija kutilgan darajada bo'lmasa, sabab bir yo'nalishda izlanmasligi kerak: muammo maqsadning noto'g'ri qo'yilishi, mazmunning yetarli emasligi, metodikaning vaziyatga mos kelmasligi, vaqt va resurs cheklovi yoki baholash vositasining kamchiligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Tahlildan keyin tegishli o'quv dasturi, metodika yoki resurs taqsimotiga aniq o'zgartish kiritiladi. Pedagogik menejment samaradorligini baholash uchun yettita yo'nalishni kuzatish taklif etiladi: maqsadli kompetensiyalarga erishish; nazariy bilimni amaliy vaziyatda qo'llash; aniqlangan muammolar boshqaruv qarorigacha bo'lgan vaqt; ssenariyli tayyorgarlikning natijaga ta'siri; professor-o'qituvchilarning metodik rivojlanishi; kafedralar va hamkor muassasalar o'rtasidagi o'zaro ishlash darajasi; raqamli monitoring bilan qamrab olingan o'quv jarayonlari ulushi. Kelgusi empirik tadqiqotda ushbu yo'nalishlar uchun o'lchov shkalalari va mezon qiymatlarini aniqlash talab etiladi. Harbiy ta'limda adaptiv boshqaruv intizom yoki standartlarni susaytirishni anglatmaydi. Aksincha, belgilangan talablar saqlangan holda monitoring ma'lumotlariga tez munosabat bildirish, pedagogik usulni vaziyatga mos tanlash va zarur bo'lganda o'quv jarayonini qayta tashkil etish imkoniyatini yaratadi. Boshqaruvning qat'iy me'yorlari bilan ma'lumotga asoslangan moslashuv o'rtasidagi muvozanat mazkur mexanizmning asosiy sharti hisoblanadi. Mexanizmni milliy amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish mumkin. Dastlab kompetensiyalar matritsasi va ularni baholash ko'rsatkichlari kelishib olinadi. Keyin o'quv natijalarini yig'ish va tahlil qilishning raqamli vositalari yo'lga qo'yiladi. Navbatdagi bosqichda ssenariyli, simulyatsion va idoralararo mashg'ulotlar natijalari umumiy monitoring tizimiga kiritiladi. To'plangan ma'lumotlar o'quv rejalari, metodik ta'minot va professor-o'qituvchilar malakasini oshirish mazmunini muntazam yangilash uchun ishlatiladi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari harbiy ta'lim muassasasining samaradorligi zamonaviy o'quv mazmuni bilan cheklanmasligini ko'rsatdi. Muhim masala mazkur mazmunning qanday rejalashtirilishi, kimlar tomonidan va qay tarzda amalga oshirilishi, natijalarning qanday baholanishi hamda baholash asosida qanday boshqaruv qarorlari qabul qilinishidir. Shu ma'noda pedagogik menejment ma'muriy boshqaruvni almashtirmaydi, balki uni ta'lim natijalari va rivojlanish vazifalari bilan uzviy bog'laydi. Sandhurst, West Point va Saint-Cyr tajribalarining qiyosiy tahlili har bir muassasada o'ziga xos ustuvor yo'nalish shakllanganini ko'rsatdi. Sandhurstda asosiy e'tibor bosqichli mas'uliyat va murakkab amaliy mashqlarga, West Pointda aniq natijalar hamda ularni baholashga, Saint-Cyrda esa akademik va harbiy tayyorgarlikni uzoq muddatli kasbiy rivojlanish bilan bog'lashga qaratilgan [3–5]. NATO DEEP tajribasi bu jarayonlarda o'quv dasturi, pedagog kadrlar va institutsional sifatni birgalikda rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi [2]. O'zbekiston harbiy ta'lim tizimi uchun xorijiy tajribadan foydalanish selektiv xususiyatga ega bo'lishi kerak. Milliy tizimdagi boshqaruv intizomi, shtab tayyorgarligi va maqsadli kadrlar tayyorlash kabi shakllangan jihatlar saqlanishi lozim. Ular kompetensiyalarga asoslangan monitoring, raqamli tahlil, ssenariyli tayyorgarlik va muassasalararo hamkorlik bilan to'ldirilganda pedagogik boshqaruvning moslashuvchanligi va samaradorligi oshadi. Amaliy jihatdan, birinchi navbatda, yagona kompetensiyalar matritsasini shakllantirish va uni o'quv rejalari bilan bog'lash; monitoring ma'lumotlarini pedagogik qaror qabul qilish jarayoniga kiritish; murakkablashib boruvchi ssenariyli vazifalar ulushini oshirish; professor-o'qituvchilarning pedagogik menejment kompetensiyalarini rivojlantirish; raqamli tahlil vositalaridan foydalanish hamda harbiy va fuqarolik oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi ilmiy-pedagogik hamkorlikni tizimli yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Taklif etilgan integrativ-adaptiv mexanizmning asosiy farqi shundaki, boshqaruv faqat natija qayd etilgandan keyin emas, balki butun ta'lim sikli davomida zarur ma'lumotlar bilan ta'minlanadi. Bu yondashuv reja ijrosini nazorat qilish bilan cheklanmay, aniqlangan muammolarga o'z vaqtida ta'sir ko'rsatish, boshqaruv qarorlarini dalillarga asoslash va o'quv jarayonini muntazam takomillashtirish imkonini beradi. Keyingi bosqichda mazkur mexanizm mezonlarini empirik sinovdan o'tkazish hamda ularning pedagogik menejment samaradorligiga ta'sirini miqdoriy jihatdan baholash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bush T. Educational Leadership and Management: Theory, Policy, and Practice // South African Journal of Education. – 2007. – Vol. 27, No. 3. – P. 391–406.
2. NATO. Defence Education Enhancement Programme (DEEP): Reference Curricula and Guidance Documents; Faculty Development.
3. The British Army. Officer Training at Royal Military Academy Sandhurst.
4. United States Military Academy. Part I: The Academic Program // West Point Redbook. – Updated 2026.
5. Académie militaire de Saint-Cyr Coëtquidan. École spéciale militaire / Ministère des Armées et des Anciens combattants.
6. O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti // O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
7. Oliy harbiy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi // O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. – 2026-yil 21-fevral.
8. Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti hamda Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi // O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. – 2026-yil 9-aprel.
9. Ikki tomonlama hamkorlikdagi memorandum imzolandi // O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. – 2026-yil 12-may.
10. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar oliy ta'lim tashkilotlari konsorsiumi doirasidagi ustuvor vazifalar // O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali. – 2026-yil 8-iyun.